


1auksion.uz tizimidan foydalanish va online auksionlarda ishtirok etish bo'yicha

FOYDALANUVCHI QO'LLANMASI

Tizimdan foydalanish uchun www.1auksion.uz saytida ro'yxatdan o'tgan va o'z login/parolingizga ega bo'lishingiz kerak. Har bir auksion savdosida ishtirok etish uchun esa belgilangan tartibda savdolar boshlanishidan kamida bir ish kuni oldin qayd etilgan miqdordagi zaklad pulini to'lashingiz talab etiladi. Shundan so'ng Sizga zaklad puli to'langan auksionda teng imkoniyatli ishtirokchi sifatida online tarzda qatnashish huquqi beriladi. Quyida tizim ro'yxatidan o'tish, auksion savdolarida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritish va savdolarida ishtirok etish ko'rsatmalari taqdim etiladi.

TIZIMGA A'ZO BO'LISH

Tizimga a'zo bo'lish uchun www.1auksion.uz saytining bosh sahifasiga o'tganingizdan so'ng yuqori o'ng burchakda joylashgan "Kirish" bandiga murojaat qilasiz.



Bu link Sizni saytga kirish formasi joylashgan sahifaga olib o'tadi. Agar tizimda avvaldan ro'yxatdan o'tgan bo'lsangiz aynan shu forma orqali saytga kirishingiz mumkin. Saytdan shaxsiy kompyuteringiz orqali foydalanayotgan bo'lsangiz "Meni eslab qol" bandidan foydalangan holda o'z login/parolingizni saqlab qo'yishingiz ham mumkin. Bu keyingi marta tizimga kirishingizda qulaylik yaratadi.

Tizimga a'zo bo'lish uchun "Tizimga a'zo bo'ling" linki orqali a'zolik anketasi sahifasiga o'ting:

Kirish

Email manzilingiz

Parol

Meni eslab qol

Kirish

Parolni unutdingizmi?

Hali a'zo emasmisiz? [Tizimga a'zo bo'ling](#)

A'zo bo'lish anketasida ismingiz, familiyangiz, telefon va STIR raqamingiz kabi ma'lumotlarni aniq va xatosiz kiritish orqali tizim a'zosiga aylanishingiz mumkin. Eslatib o'tamiz, ma'lumotlaringizni to'g'ri yozishingiz keyinchalik tizimdan mukammal foydalanishingizni kafolatlaydi.

Ro'yxatdan o'tish

Ism

Familiya

STIR raqami

Telefon (kod bilan)

Elektron pochta

Yangi login yozing

Parol

Tizimga a'zo bo'lishingiz bilan saytimizga joylangan barcha savdosi o'tkazilishi kutilayotgan auksionlar bilan tanishishingiz, savdoga qo'yilgan mulklar haqida batafsil ma'lumot olishingiz mumkin bo'ladi. Har bir mulk haqida ma'lumot ularning fotojamlanmasi bilan birgalikda taqdim etiladi. Mulk haqidagi ma'lumotda auksion savdosining qaysi sanaga rejalashtirilganligi, boshlang'ich narxi, zaklad puli miqdori va boshqa ma'lumotlarni ko'rishingiz mumkin.

AUKSION SAVDOSIDA QATNASHISH

Tizimga o'z login/parolingiz bilan kirgan holda auksion savdolariga qo'yilgan barcha mulklar haqida batafsil ma'lumotni ko'rishingiz mumkin. Saytdagi kelajakda o'tkazilishi rejalashtirilgan barcha auksionlarni asosiy menyuning "Barcha auksionlar" bandi orqali o'tgan holda ko'rishingiz mumkin.

+998 (71) 228-80-26

Toshkent sh. Olmazor tumani, 1-Qoraqamish ko'chasi, 1-A uy

O'zbek

Русский

Kirish / Вход



ASOSIY

BARCHA AUKSIONLAR

QOIDALAR

BOG'LANISH

Barcha auksionlar

Viloyatni tanlang

Barcha viloyatlar

Kategoriyaning tanlang

Barcha kategoriyalar

Saralash



Chorvachilik va yordamchi xo'jalik binolari

Boshlanish sanasi: 12.11.2018 soat 12:00

Boshlang'ich narxi: 416 938 308 so'm



Parrandachilik fermasi bino-inshootlari va ishlab chiqarish uskunalari

Boshlanish sanasi: 14.11.2018 soat 12:00



Meva quritish sexi binosi

Boshlanish sanasi: 14.11.2018 soat 12:00

Boshlang'ich narxi: 187 844 348 so'm

Barcha auksionlar ko'rinishi sahifasida mulklarni viloyatlar va mulk kategoriyalari kesimi bo'yicha saralash imkoniyati yaratilgan. Bu orqali savdoga qo'yilgan barcha mulklarni tez va oson saralab olishingiz mumkin. Har bir mulk haqidagi batafsil ma'lumotni mulk sahifasida joylashtirilgan.

Parrandachilik fermasi bino-inshootlari va ishlab chiqarish uskunalari



"Jarqo'rg'onneft" AJga tegishli Qiziriq tuman "Zarkamar" QFY "Zarbdor" mahallasi hududida joylashgan, umumiy yer maydoni 3,7947 ga bo'lgan Parrandachilik fermasi bino-inshootlari va ishlab chiqarish uskunalari qo'yilmoqda.

Boshlanish sanasi: 14.11.2018 soat 12:00

Boshlang'ich narxi: 14 707 725 082 so'm


Zaklad miqdori: 2 206 158 763 so'm

Qadam miqdori: 0.05%

Zaklad qabul qilish muhlati: 13.11.2018 soat 10:00

Har bir mulk sahifasida auksion savdosigacha qolgan vaqt bir soniya aniqlikda teskari sanash ko'rinishida taqdim etiladi. Bu hisoblagich bilan auksion savdosi qancha vaqtdan keyin boshlanishini ko'rish mumkin:

Auksion boshlanishiga qolgan vaqt:



Ushbu auksionda ishtirok etish uchun zaklad pulini to'lashingiz zarur

Batafsil ma'lumot uchun quyidagi telefon orqali murojaat qiling: +99893 798 22 00

Shu bilan birga auksion savdosida ishtirok etish uchun zaklad puli to'lashingiz kerakligi haqidagi ma'lumotni ham ko'rasiz. Agar Siz ushbu mulk savdosida qatnashish istagida bo'lsangiz auksion savdosi boshlanishidan bir ish kuni qolgan vaqtga qadar zaklad pulini to'lashingiz kerak bo'ladi.

Zaklad puli savdo tashkilotchisining viloyatlar va poytaxtdagi filiallarida qabul qilinadi. Zaklad pulini to'lashingiz davomida tizimda ro'yxatdan o'tkazilgan ma'lumotlaringizni ham taqdim etishingiz zarur. Zaklad puli qabul qilingandan so'ng Siz ko'rsatgan ma'lumotlar asosida saytdagi a'zolingizga zaklad puli to'langan mulk savdosida ishtirok etish huquqi taqdim etiladi.

Tizimning har bir a'zosida shaxsiy kabinet imkoniyati mavjud. Ushbu kabinetda qaysi mulk savdolari uchun zaklad puli to'laganligingiz (qaysi savdolarida ishtirok etish huquqingiz borligi) aks ettiriladi. Bundan tashqari shaxsiy kabinet orqali savdosi bo'lib o'tgan mulklar haqida ma'lumot olishingiz mumkin. Eng asosiysi - bo'lib o'tgan savdoning to'liq tarixini istagan vaqtda ko'rib chiqishingiz mumkin.

+998 (71) 228-80-26

Toshkent sh. Olmazor tumani, 1-Qoraqamish ko'chasi, 1-A uy

O'zbek

Русский

Chiqish / Выход



ASOSIY

BARCHA AUKSIONLAR

QOIDALAR

BOG'LANISH

ISHTIROKCHI KABINETI

Mening auksionlarim

Bu yerda ishtirok etish uchun zaklad puli to'lagan auksionlaringiz va avval ishtirok etgan savdolaringiz ko'rsatiladi.

| Savdo obyekti | Boshlang'ich bahosi | Zaklad miqdori | O'tkazilish vaqti | Natija |
|---|---------------------|-----------------|-------------------|----------------------------------|
| [SINOV] Ishlab chiqarish korxonasi binosi | 260 757 078 so'm | 39 113 562 so'm | Auksion tugagan | Auksionda siz g'olib bo'ldingiz! |

Zaklad pulini to'laganingizdan so'ng savdoda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritasiz. Endi auksion savdosining boshlanish vaqtini kutish qoldi. Belgilangan vaqt kelgandan so'ng auksion savdosida ishtirok etish uchun tegishli mulk sahifasiga o'tasiz. Auksion savdo maydonchasi quyidagi ko'rinishga ega:

+998 (71) 228-80-26 Tashkent sh. Olmazor tumani, 1-Qoraqamish ko'chasi, 1-A uy O'zbek Русский Chiqish / Выход

auksion
ko'chmas mulk savdosi

ASOSIY BARCHA AUKSIONLAR QOIDALAR BOG'LANISH ISHTIROKCHI PROFILI

Savdo jarayoni amalda

Boshlang'ich narxi:
260 757 078 so'm

So'nggi taklif qilingan narxi:
1 016 952 610 so'm

Savdo tugashigacha qolgan vaqt:
08:58

1 029 990 464 so'm taklif qilish

Taklif qilish

Siz narx taklif qildingiz

- ▶ 04.11.2018 22:32:54 — 964 801 194 so'm
#2 narx taklif qildi
- ▶ 04.11.2018 22:34:41 — 977 839 048 so'm
Siz narx taklif qildingiz
- ▶ 04.11.2018 22:34:52 — 990 876 902 so'm
#2 narx taklif qildi
- ▶ 04.11.2018 22:34:58 — 1 003 914 756 so'm
Siz narx taklif qildingiz
- ▶ 04.11.2018 22:35:02 — 1 016 952 610 so'm
#2 narx taklif qildi

Savo maydonchasi uchta asosiy qismlarga ajratilgan: chap tomonda mulkning boshlang'ich narxi va so'nggi taklif qilingan summa aks ettiriladi, o'rtada qadam miqdori qo'shilgan summani taklif qilish imkoniyatini beruvchi tugma va so'nggi taklifdan (hech kim narx taklif qilmasa) savdo yakunigacha qolgan 10 daqiqali vaqtning teskari sanog'i, o'ng tomonda esa har bir taklif qilingan narxning umumlashtirilgan tarixi. Ushbu tarixni savdo tugagandan so'ng shaxsiy kabinet orqali istalgan vaqtda ko'rish imkoniyatiga egasiz.

Auksion qoidalariga ko'ra Siz narx taklif qilsangiz, 10 daqiqali sanoq boshlanadi va ushbu vaqt oralig'ida hech kim narx taklif qilmasa mulk Sizga sotiladi! Aks holda, boshqa bir ishtirokchi narx taklif qilsa, Sizga yana kattaroq summa bilan narx taklif qilish imkoniyati yaratiladi.

+998 (71) 228-80-26 Tashkent sh. Olmazor tumani, 1-Qoraqamish ko'chasi, 1-A uy O'zbek Русский Chiqish / Выход

auksion
ko'chmas mulk savdosi

ASOSIY BARCHA AUKSIONLAR QOIDALAR BOG'LANISH ISHTIROKCHI PROFILI

Savdo jarayoni amalda

Boshlang'ich narxi:
260 757 078 so'm

So'nggi taklif qilingan narxi:
1 029 990 464 so'm

Savdo tugashigacha qolgan vaqt:
09:57

Yuqoridagi vaqt tugashiga qadar hech kim narx taklif qilmasa, Siz savdo g'olibi hisoblanasiz.

Siz narx taklif qildingiz

- ▶ 04.11.2018 22:32:54 — 964 801 194 so'm
#2 narx taklif qildi
- ▶ 04.11.2018 22:34:41 — 977 839 048 so'm
Siz narx taklif qildingiz
- ▶ 04.11.2018 22:34:52 — 990 876 902 so'm
#2 narx taklif qildi
- ▶ 04.11.2018 22:34:58 — 1 003 914 756 so'm
Siz narx taklif qildingiz
- ▶ 04.11.2018 22:35:02 — 1 016 952 610 so'm
#2 narx taklif qildi

Savdo yakunida ishtirokchilarga yakunlangan auksion savdosi natijasi ko'rsatiladi. G'olib bo'lgan ishtirokchi o'zining g'olib bo'lganligini savdo so'ngidagi xabarnomada ko'rishi mumkin. G'olib bo'la olmagan boshqa barcha ishtirokchilarga auksion savdosi anonim ishtirokchining g'olibligi bilan tugaganligi haqidagi xabarnoma ko'rsatiladi.

Auksion savdosida ishtirok etayotgan barcha qatnashchilarning shaxslari savdo davomida sir tutiladi. Barcha ishtirokchilarga maxfiylashtirilgan raqamlar taqdim etiladi. #15, #24, #42 va hokazo ko'rinishidagi bu raqamlar savdoda ishtirok etayotgan ma'lumot qatnashchilarni ifodalaydi.

Savdo yakunida har bir ishtirokchi o'z shaxsiy kabineti orqali o'tkazilgan savdo natijasini, narxlarning taklif qilinish tarixini ko'rib chiqishi mumkin.

Tizimdan foydalanish va auksion savdolarida qatnashish yuzasidan har qanday savollar bilan Dushanbadan Shanbaga qadar soat 09:00 dan 18:00 gacha murojaat qilishingiz mumkin:

Telefon: +998 93 798 22 00

Telegram: [@getOver](#)

Email: info@1auksion.uz